

REFLEKSIV TA'LIMIY MUHIT

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi
Vapayeva Fazilat Shuhratovna

ANNOTATSIYA

Refleksiv ta'limiylar muhitda o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish ijtimoiy amaliyot va ta'lism ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning qiziqishlari, shaxsiy imkoniyatlari, boshlang'ich tushunchalari hamda egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tahlil qilish va ob'ektiv baholash asosida ularning faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Kalit so'zlar obyektiv tizim, yaxlit tizim, subyektiv yondashuv, natijaviy refleksiya, refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish.

ANNOTATION

Coordinating students' activities in a reflexive educational environment based on social practice and educational needs, analyzing their interests, personal capabilities, initial concepts, and the level of acquired knowledge, skills, and abilities, and objectively evaluating their activity it is necessary to be oriented towards development.

Key words objective system, integrated system, subjective approach, consequential reflection, development of reflexive skills.

АННОТАЦИЯ

Координируя деятельность учащихся в рефлексивной образовательной среде на основе социальной практики и образовательных потребностей, анализируя их интересы, личностные возможности, исходные представления, уровень

приобретенных знаний, умений и навыков, объективно оценивая их деятельность, необходимо ориентироваться. К развитию.

Ключевые слова объективная система, интегрированная система, субъектный подход, последовательное отражение, развитие рефлексивных способностей.

KIRISH

Respublikamizda umumiy o'rta ta'llim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda o'qish, tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish, o'zini-o'zi tahlil qilish asosida voqelikka ongli munosabatni qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash» masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

METODOLOGIYA

Refleksiv ta'llimiylar muhitda o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish ularda shakllangan yoki maxsus shakllantirilgan ehtiyojlar asosida refleksiv faoliyatini tashkil etish va faolligini rivojlantirishga, ya'ni axborotlar to'plash, tahlil qilish va ob'ektiv baholashda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan refleksiv ko'nikmalar shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning refleksiv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va muvofiqlashtirish asosida mazkur jarayonda ularning faolligini

ta'minlash va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarning natijaviyligini ifodalaydi.

Refleksiv ta'limiy muhitda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri o'quvchilar faolligini ta'minlashning samaradorligi ularda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarining natijaviyligini ifodalashi bo'lsa, natijaviylik refleksiv ta'limiy muhitda o'quvchilarning faoliyi, intellektual qobiliyatlarining rivojlanish darajasi, dunyoqarashining rivojlanishi, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasining o'sishini belgilaydi.

Shunday ekan, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarida natijaviylik sub'ekt sifatida o'quvchilarning refleksiv faoliyati samaradorligiga bog'liq bo'lib, u belgilangan maqsadga erishish yo'nalishidagi xatti-harakatlar bilan qo'lga kiritilgan natijalar o'rtasidagi mutanosiblikni ifodalaydi, ya'ni natijaviylik refleksiv ta'limiy muhitda o'quvchilarning refleksiv faoliyati samaradorligining ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Refleksiv ta'limiy muhitda sub'ekt sifatida o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishning samaradorligi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarida erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi mutanosiblikni ifodalashi bilan bir qatorda, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarida natijaviylikni ta'minlash uchun quyidagi shartlarning bajarilish zaruriyatini belgilaydi:

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida sub'ekt sifatida o'quvchilarning boshlang'ich tushunchalariga ilmiy va ob'ektiv yondashish; o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish

jarayonlarida sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish vositasi sifatida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida sub'ekt sifatida o'quvchilar faolligini ta'minlash uchun qulay vaziyatlarni vujudga keltiruvchi ijodiy-refleksiv ta'limiylar muhitni shakllantirish;

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida sub'ektlarning refleksiv faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqishda o'quvchilar faolligini ta'minlash mexanizmlari sifatida ularni refleksiv faoliyatga undovchi motivlarni asosiy omillar sifatida belgilash zarur.

Refleksiv ta'limiylar muhitda o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish turli motivlar yordamida ularning faolligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi va u o'ziga xos murakkab va ko'p qirrali bo'lib o'quvchilar faoliyatini turli motivlar yordamida boshqarilishi jarayonlarini qamrab oladi.

Mazkur jarayonda motivlar yordamida o'quvchilarning irodaviy hattixarakatlarni vujudga keltiruvchi ta'sir samarali hisoblanadi va ularning refleksiv faoliyati samaradorligi motivlarning xususiyatiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilarning irodaviy hatti-xarakatlarni vujudga keltiruvchi ta'sirning natijaviyligi o'z navbatida ularning refleksiv faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonlarining samaradorligini ifodalaydi.

NATIJA

Yaxlit tizimni tashkil etuvchi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish; o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish; o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar

shakllantirish jarayonlarida sub'ekt sifatida o'quvchilar faolligini ta'minlovchi, tanqidiy va tahliliy fikrlashga undovchi refleksiv yondashuvni joriy etish; o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini hamda mazkur jarayon sub'ektlari sifatida o'quvchilarning refleksiv faoliyatining ahamiyatini inobatga olish.

XULOSA

Demak, ta'lismuassasalarida shakllantiriladigan refleksiv ta'limiylar muhitda vujudga keladigan vaziyatlarga bog'liq holda mazkur jarayonlar samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarni o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarning samaradorligini oshirishning metodologik asoslari sifatida ko'rib chiqish o'ziga xos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. O'quv uslubiy qo'llanma. – T.: FAN, 2000. – 130 b.
2. Fishman L.I. Modelirovanie obrazovatelnogo menedjmenta // Shkolnye texnologii. – 1999. – № 3. – S. 41-55.
3. Fozilov J.K. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida maktabdan tashqari ta'lim tizimini boshqarishning pedagogik asoslari.: Ped. F.n. ... diss. Avtoref. – Toshkent, 2007. – 22 b.
4. Xodjaev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2016. – 260 b.

5. Xutorskiy A.V. Sovremennaya didaktika: Uchebnik dlya vuzov. – SPb: Piter, 2001. – 544 s.
6. Xo'jaev A.A., Xeyki Lentinin. O'zbekiston o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi tizimida boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent, 2001. – 126 b.